ФАКТОРЫ И МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	878
<i>Алиева Эльнара Аметовна, Рахматхонов Саидодилхон Расулхон угли</i>	
МЕХАНИЗМЫ УСТОЙЧИВОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ В СТРАНАХ С РАЗВИВАЮЩЕЙСЯ ЭКОНОМИКОЙ: РОЛЬ ESG-ИНСТРУМЕНТОВ, ДИНАМИКА РАЗВИТИЯ РЫНКА ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА И МАЛАЙЗИИ.....	884
<i>Нарзуллаева Мехрангиз Акобировна</i>	
DORIVOR O'SIMLIKLAR SAVDOSIDA QIYMAT ZANJIRI TAHLILI: IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH OMILLARI.....	893
<i>Maftuna Ermatova Arslonbek qizi</i>	
O'ZBEKISTON VA TURKMANISTON O'RTASIDAGI SAVDO AYLANMASI TAHLILI .....	899
<i>Voxidova Mehri Xasanovna</i>	
GLOBAL KOMPANIYALARDA RAQAMLI MENEJMENTNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI .....	905
<i>Axmedov Sardor Shuxrat o'g'li</i>	
IQLIM O'ZGARISHLARI VA GLOBALLASHUV SHAROITIDA EKOLOGIK-HUQUQIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH.....	912
<i>Jumanazar Xolmuminov</i>	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI .....	916
<i>Kalandarova Elnura Muzaffar qizi</i>	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDLARNING INVESTITSİYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	921
<i>Rahmatullayev Bobir Chorshamiyevich</i>	



FINANCING WATER RESILIENCE: A FEASIBILITY ANALYSIS OF SOVEREIGN BLUE BOND ISSUANCE IN UZBEKISTAN.....	926
<b>Yakubov Jakhongir</b>	
УКРЕПЛЕНИЕ ПАРТНЁРСТВО И СОЗДАНИЕ ЕДИНСТВЕННОГО ЭНЕРГОРЫНКА В УЗБЕКИСТАНЕ.....	929
<b>Каримова Нуржахон Олим кизи</b>	
ИННОВАЦИОННАЯ ЗРЕЛОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ФАКТОР РОСТА ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ КОМПЛЕКСНОЙ МОДЕЛИ.....	935
<b>Алиева Эльнара Аметовна, Табаков Евгений Сергеевич</b>	
"BUDJET JARAYONLARIDA XAVFLARNI ANIQLASH VA BAHOLASH: ICHKI AUDIT YONDASHUVLARI".....	941
<b>Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna, Nishonxo'djaev Bekzod Baxodir o'g'li</b>	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA DAVLATNING ROLI.....	947
<b>Raximov Baxromjon Ibroximovich</b>	
O'ZBEKISTONDA SUT SEKTORINING QIYMAT ZANJIRINI SANOATLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	951
<b>Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich</b>	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBIDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYA TIZIMLARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI.....	955
<b>Hamroyeva Zuhra Amiral qizi</b>	
АНАЛИЗ И ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В АЗЕРБАЙДЖАНЕ.....	961
<b>Ариф Мустафаев</b>	
ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ИЗМЕНЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ.....	968
<b>Ишонкулова Феруза Асатовна</b>	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION HUQUQIY SIYOSATIDA GLOBAL REYTINGLARNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	974
<b>Gavhar Bekmurodova Adham qizi</b>	
XALQARO MOLIYA BOZORIDA KREDIT RISKINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	981
<b>Ochilova Xusniya Olim qizi, Yuldasheva Umida Asanaliyevna</b>	
JAHONDA BRONLASH TIZIMLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARINING EVOLYUTSIYASI.....	987
<b>Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi</b>	
MILLIY IQTISODIYOT INNOVATSION SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA JAHON TAJRIBALARI.....	994
<b>Samadqulov Muhammadjon Islom o'g'li</b>	
HUDUDIY RIVOJLANISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING AHOLI DAROMADLAR DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	998
<b>Olimjon Fattoyev G'ayrat o'g'li</b>	
OLIV TA'LIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY SHAROITLARDI RAQOBATBARDOSHLIGI: NAZARIY JIHATLARI VA AMALIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI.....	1002
<b>Adizov Bobir Baxtiyorovich</b>	
ZAMONAVIY SHAROITDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RISKLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1005
<b>Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, Nasritdinov Bekzod Xusnutdinovich</b>	
NAMANGAN VILOYATIDA QURILISH KLASTERNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI VA ISTIQBOLLI MANBALARI.....	1011
<b>Abduraxmanov Muxtorali Abduvoxidovich</b>	
ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ.....	1016
<b>Авезова Шахноза Махмуджановна</b>	
MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR KO'RSATADIGAN OMILLAR.....	1022
<b>Obilov Mirkomil Rashidovich</b>	



“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING MADANIY IDENTIKLIKKA TA’SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL” .....	1028
Alijonova Nargiza Rashidjon qizi	
STATISTICAL ANALYSIS OF CREDIT INTEREST RATES.....	1034
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI VA SAMARALI TA‘MINOT ZANJIRI MODELII.....	1037
Olimova Bahora Shuxratovna	
INNOVASION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHINING NAZARIY JIHATLARI.....	1042
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI.....	1047
Axmedova Dilafro‘z Elshodovna	
B2BDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR.....	1053
Abdubotirova Madinaxon	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННО - ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ.....	1059
Баходирова Хилола Баходировна	
RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH.....	1063
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Abdurazakova Diyora	
ENERGIYA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI.....	1070
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN THE CONTEXT OF BANKING TRANSFORMATION .....	1075
Jabborov Bahridin Rashidovich	
MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI.....	1079
G‘ofurov Iskandar Abduraxmonovich	
BANKLARNING INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI .....	1084
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MA‘LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI.....	1090
Maxamadiyev M. M.	
УСТОЙЧИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ: АНАЛИЗ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ АКИБ «ИПОТЕКА-БАНК» ПОСЛЕ ВХОЖДЕНИЯ В ОTR GROUP.....	1095
Каримова Нуржахон Олим кизи	
O‘ZBEKISTON OLIY TA‘LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1101
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O‘RNI .....	1108
Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI” .....	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	
TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	1138
Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI.....	1143
<i>Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi</i>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
<i>Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li</i>	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI .....	1156
<i>Akramov Toxir Abdiraxmanovich</i>	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	1161
<i>Adashev Azimjon Urinboyevich</i>	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI .....	1165
<i>Abdunazarova Dilshoda Akromovna</i>	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA BOSHQARUV HISOBİ AXBOROTINING AHAMIYATI .....	1170
<i>Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi</i>	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA ULARNING TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDAGI AHAMIYATI.....	1177
<i>Ismoilova Feruza Kubaymurodovna</i>	
EKOMARKETING STRATEGIYALARI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH .....	1182
<i>Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li</i>	
ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC SECURITY IN THE KHOREZM REGION: WASTE RECYCLING AND CIRCULAR ECONOMY .....	1186
<i>Mdraximova Shohista Bahrom qizi</i>	
KICHIK BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1191
<i>Mavrulov Ravshan Nematjonovich</i>	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLİM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH.....	1195
<i>Sultonov Baxtiyor Baxodirovich</i>	
MINTAQAVIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1201
<i>Duschanov Alisher Sherzod o'g'li</i>	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI .....	1206
<i>Opaev Bysen Aymanovich</i>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH.....	1212
<i>Yuldashev Fozil Turapovich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJIRIBASI.....	1218
<i>M.M.Muminova</i>	
ИНТЕГРАЦИОННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ОПЕРАТОРА И ПРЕДПРИЯТИЙ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ .....	1223
<i>Худаярова Мехрангиз Мурадовна</i>	
TURIZMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN XIZMATLAR KONSEPSIYASI VA TAJRIBA TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....	1230
<i>Raxmatov Aziz Tolipovich</i>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1235
<i>Smaylova Zarafshan</i>	
XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI .....	1239
<i>Abdunazarov Dilshoda Akromovna</i>	



METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA NATIJALARI .....	1244
<b>Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich</b>	
HUDUDIY IQTISODIY O'SISH OMILLARINING EKONOMETRIK TAHLILI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA .....	1248
<b>Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li</b>	
INDUSTRIAL RIVOJLANISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK OQIBATLARI .....	1258
<b>Ataniyazova M.B.</b>	
OLIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI .....	1263
<b>Nishonov Dilshod Shamsidinovich</b>	
СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ЭЛЕМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	1269
<b>Махмутходжаева Луиза Сайфуллоевна</b>	
IQTISODIYOTDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI .....	1274
<b>Risqibekova Nozimaxon</b>	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES .....	1280
<b>Farrukh Mamadiyurov Shukhratovich</b>	
MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI .....	1284
<b>Turdiyev Ulug'bek Qayumovich</b>	
MAJOR INFLATIONARY FACTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND ANTI-INFLATION POLICIES .....	1290
<b>Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi</b>	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ .....	1296
<b>Бекова Азиза Алимовна</b>	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	1301
<b>Abdullayev Abror Bozarboyevich</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOIIY ROLI .....	1308
<b>Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna</b>	
MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI .....	1314
<b>Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi</b>	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI .....	1320
<b>Abduraxmanova Malika Abdujaparovna</b>	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH .....	1326
<b>Olimjonov Firdavs</b>	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI .....	1332
<b>Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li</b>	



# FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI

## Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich

DSc., prof.,

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi

Budjet-soliq ilmiy tadqiqotlari instituti direktorining birinchi o'rinbosari.

Email: [Dilshod.Pulatov@ifs.imv.uz](mailto:Dilshod.Pulatov@ifs.imv.uz)

## Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi

Budjet-soliq ilmiy tadqiqotlari instituti

Budjet siyosati va budjetlararo munosabatlarni

takomillashtirish loyihasi bo'lim bosh mutaxassisi

Email: [ahadjon2612@gmail.com](mailto:ahadjon2612@gmail.com)

ORCID: 0009-0005-5985-7708

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirish va markazsizlashtirishning muhim vositasi bo'lgan fiskal federalizm nazariyasi hamda uning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda Richard Masgreyv, Charlz Taybaut va Uolles Outs kabi iqtisodchilarning fundamental nazariyalari, xususan, davlat funksiyalarini taqsimlash, "oyoq bilan ovoz berish" gipotezasi va markazsizlashtirish teoremlari ko'rib chiqilgan.

Maqolada soliq vakolatlarini taqsimlash mezonlari yoritilgan. Shuningdek, vertikal va gorizontal fiskal nomutanosibliklarni bartaraf etishda budjetlararo transfertlarning (grantlar) roli ochib berilgan.

Fiskal markazsizlashtirishning samaradorlikni oshirish, innovatsiyalar va hisobdorlik kabi ijobiy jihatlarni tahlil qilish bilan birga, makroiqtisodiy beqarorlik, "yumshoq budjet cheklovlari" va mintaqaviy tengsizlik kabi xatarlariga ham to'xtalib o'tilgan. Xulosa qismida fiskal federalizm universal yechim emasligi, uning muvaffaqiyati har bir mamlakatning o'ziga xos sharoitlari va institutlarining mustahkamligiga bog'liqligi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** Fiskal federalizm, fiskal markazsizlashtirish, davlat moliyasi nazariyasi, budjetlararo transfertlar, vertikal fiskal nomutanosiblikni to'g'rilash, gorizontal fiskal tenglashtirish, "Oyoq bilan ovoz berish" gipotezasi, markazsizlashtirish teoremasi.

**Abstract.** This article explores the theory of fiscal federalism, a vital tool for improving and decentralizing public finance management, and assesses its practical significance. The study reviews key theories proposed by economists such as Richard Musgrave, Charles Tiebout, and Wallace Oates, concentrating on the allocation of government functions, the "vote with feet" hypothesis, and decentralization theorems.

The article discusses the criteria for distributing tax authority. It also examines how inter-budgetary transfers (grants) help eliminate vertical and horizontal fiscal disparities.

Along with analyzing the positive aspects of fiscal decentralization, such as increasing efficiency, innovation, and accountability, the risks of macroeconomic instability, "soft budget constraints," and regional inequality were also discussed. In conclusion, it is emphasized that fiscal federalism is not a universal solution, and its success depends on the specific conditions and institutions of each country.

**Key words:** Fiscal federalism, fiscal decentralization, public finance theory, inter-budgetary transfers, correction of vertical fiscal imbalance, horizontal fiscal equalization, "Voting with Feet" hypothesis, decentralization theorem.

**Аннотация.** В данной статье анализируется теория фискального федерализма, являющегося важным инструментом совершенствования и децентрализации управления государственными финансами, и ее практическое значение. В исследовании рассматриваются фундаментальные теории таких экономистов, как Ричард Масгрейв, Чарльз Тайбоут и Уоллес Оутс, в частности, распределение государственных функций, гипотеза "голосования ногами" и теоремы о децентрализации.



В статье освещены критерии распределения налоговых полномочий. Также раскрыта роль межбюджетных трансфертов (грантов) в устранении вертикальных и горизонтальных фискальных диспропорций.

Наряду с анализом положительных аспектов фискальной децентрализации, таких как повышение эффективности, инновации и подотчетность, также были затронуты такие риски, как макроэкономическая нестабильность, "мягкие бюджетные ограничения" и региональное неравенство. В заключении подчеркивается, что фискальный федерализм не является универсальным решением, его успех зависит от специфических условий и устойчивости институтов каждой страны.

**Ключевые слова:** Фискальный федерализм, фискальная децентрализация, теория государственных финансов, межбюджетные трансферты, коррекция вертикального фискального дисбаланса, горизонтальное фискальное выравнивание, гипотеза "голосования ногами," теорема децентрализации.

## KIRISH

XX asrning ikkinchi yarmida G'arb mamlakatlari uzoq muddatli noqulay va turg'un davlat boshqaruv tizimini qisqartirish maqsadida fiskal federalizm nazariyasini ishlab chiqdi. Markazsizlashtirish usulidan foydalanib, ushbu nazariya tarafdorlari davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirish yo'llarini izladilar. XX asr o'rtalaridayoq fiskal federalizm davlat moliyasi nazariyalariga kiritilgan bo'lib, bu fiskal markazsizlashtirishning tizimli tahlili uchun asos yaratdi.

«Fiskal federalizm» tushunchasini ilk bor nemis millatiga mansub amerikalik iqtisodchi Richard Abel Masgreyv «Davlat moliyasi nazariyasi» (1959) asarida ishlatgan.

Ushbu nazariyaning maqsadi belgilangan vazifalarni eng kam xarajatlar bilan bajarish uchun qaysi darajada va qanday budjet funksiyalari moliyalashtirilishi kerakligini aniqlashdan iborat.

Fiskal federalizm, ya'ni davlat hokimiyatining turli pog'onalari (markaziy, mintaqaviy, mahalliy) o'rtasida moliyaviy mas'uliyat va vakolatlarning taqsimlanishi, jahon iqtisodiy adabiyotida keng o'rganilgan sohadir. Xorijiy manbalar ushbu konsepsiyani nafaqat davlat boshqaruvining bir shakli, balki iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy adolat va makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning muhim vositasi sifatida tahlil qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy fiskal federalizm nazariyasining poydevorini bir nechta fundamental ishlar tashkil etadi:

Richard Masgreyv o'zining «The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy» (Davlat moliyasi nazariyasi: Jamoat iqtisodiyotini o'rganish, 1959) nomli asarida davlatning iqtisodiyotdagi rolini uchta asosiy funktsiyaga ajratadi: resurslarni taqsimlash (allocation), daromadlarni qayta taqsimlash (distribution) va makroiqtisodiy barqarorlashtirish (stabilization). Uning fikricha, barqarorlashtirish va daromadlarni qayta taqsimlash siyosati markaziy hukumat tomonidan amalga oshirilishi kerak, chunki mintaqalar o'rtasidagi kapital va mehnat mobilligi mahalliy darajadagi bunday siyosatni samarasiz qilib qo'yadi. Biroq, resurslarni taqsimlash, ya'ni mahalliy ahamiyatga molik jamoat tovarlarini (masalan, mahalliy yo'llar, bog'lar, boshlang'ich ta'lim) taqdim etish vakolati mahalliy hokimiyatlarga berilishi kerak, chunki ular aholining ehtiyojlarini yaxshiroq biladi.[1]

Charlz Taybautning (Charles Tiebout) «Oyoq bilan ovoz berish» gipotezasi: O'zining «A Pure Theory of Local Expenditures» (Mahalliy xarajatlarning sof nazariyasi) nomli mashhur maqolasida Taybaut agar fuqarolar o'zlariga eng maqbul soliq va jamoat xizmatlari kombinatsiyasini taklif qiluvchi mahalliy yurisdiksiyaga erkin ko'chib o'ta olsalar, mahalliy hokimiyatlar o'rtasida samarali raqobat yuzaga kelishini ilgari suradi. Bu raqobat «bozor mexanizmi» kabi ishlab, mahalliy boshqaruv organlarini aholi xohish-istaklariga mos xizmatlar ko'rsatishga va resurslardan samarali foydalanishga undaydi.[2]

Uolles Outsning (Wallace Oates) «Markazsizlashtirish Teoremasi». «Fiskal federalizm» nomli fundamental kitobida Outs o'zining mashhur teoremasini taklif qiladi, ya'ni «Tashqi samaralar (spillovers) bo'lmagan taqdirda, jamoat xizmatlarini taqdim etishning markazlashgan yagona darajasidan ko'ra, aholining turlicha ehtiyojlariga moslasha oladigan markazlashmagan tizim doimo afzalroq yoki hech bo'lmaganda undan yomon emas».[3] Bu teorema Masgreyv va Taybautning g'oyalarini umumlashtirib, nega turli jamoat xizmatlari turli boshqaruv darajalarida taqdim etilishi kerakligini nazariy jihatdan asoslab berdi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy, tizimli yondashuv, solishtirma tahlil, ekspert baholash kabi usullardan foydalanildi



## TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariyadan amaliyotga o'tishda fiskal federalizm bir qator murakkab vositalar va siyosiy qarorlarni talab qiladi. Xorijiy adabiyotlarda bu borada qizg'in bahs-munozaralar mavjud:

Soliq vakolatlarini taqsimlash. Eng muhim savollardan biri – qaysi soliq qaysi boshqaruv darajasida undirilishi kerak? Umumiy qoidaga ko'ra, mobil soliq bazalariga ega bo'lgan (masalan, korporativ foyda solig'i) va makroiqtisodiy barqarorlik uchun muhim bo'lgan soliqlar markaziy darajada, kamroq mobil bazaga ega bo'lgan soliqlar (masalan, mol-mulk solig'i, yer solig'i) esa mahalliy darajada undirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Aks holda, mintaqalar o'rtasida soliq stavkalarini pasaytirish bo'yicha «tubgacha poyga» (race to the bottom) boshlanib, umumiy soliq tushumlariga zarar yetishi mumkin. [4]

Budjetlararo transfertlar. Dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida markaziy hukumat quyi budjetlarga moliyaviy yordam ko'rsatadi. Buning asosiy sabablari ikkita:

Vertikal fiskal nomutanosiblikni to'g'rilash. Ko'pincha markaziy hukumat eng daromadli soliqlarni yig'ib oladi, mahalliy hokimiyatlar zimmasiga esa katta xarajat majburiyatlari (ta'lim, sog'liqni saqlash) yuklatiladi. Transfertlar shu nomuvofiqlikni bartaraf etadi.

Horizontaal fiskal tenglashtirish. Odatda hududlarning iqtisodiy salohiyati va soliq bazasi turlicha bo'ladi. Tenglashtiruvchi grantlar «boy» va «kambag'al» mintaqalar o'rtasidagi fiskal imkoniyatlardagi farqni kamaytirishga, butun mamlakat bo'ylab fuqarolarga minimal darajadagi jamoat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kafolatlashga xizmat qiladi [5]

Xorijiy adabiyotlarda fiskal markazsizlashtirishning ijobiy va salbiy tomonlari keng muhokama qilinadi.

Ijobiy jihatlari:

- Samaradorlikning oshishi: Mahalliy hokimiyatlar aholi ehtiyojlarini yaxshiroq bilgani uchun resurslarni aniqroq yo'naltiradi [6]
- Innovatsiyalar va siyosiy tajribalar: Markazlashmagan tizim hududlarga davlat boshqaruvida turli yondashuvlarni sinab ko'rish imkonini beradi.
- Hisobdorlik va shaffoflik: Boshqaruv fuqarolarga yaqinlashgani sari ularning mahalliy hokimiyat faoliyatini nazorat qilish va undan hisobot talab qilish imkoniyati ortadi.

Salbiy jihatlari va xatarlar:

- Makroiqtisodiy beqarorlik: Agar mahalliy hokimiyatlar mas'uliyatsiz budjet siyosatini yuritsa (haddan tashqari qarz olsa), bu milliy iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
- «Yumshoq budjet cheklovlari»: Mahalliy hokimiyatlarning markaziy hukumat tomonidan qutqarilishiga bo'lgan ishonchi ularni moliyaviy intizomsizlikka undashi mumkin.[7]
- Mintaqalararo tengsizlikning kuchayishi: Samarali tenglashtirish mexanizmlari bo'lmasa, markazsizlashtirish boy hududlarning yanada boyishiga va kambag'al hududlarning orqada qolishiga olib kelishi mumkin.
- Korruptsiya xavfi va markazsizlashtirish xatarlari: Kuchli nazorat mexanizmlari bo'lmagan sharoitda vakolatlarini quyiga o'tkazish mahalliy darajadagi korruptsiyani kuchaytirishi va mintaqaviy tengsizlikni oshirishi mumkin.[8]

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy manbalar fiskal federalizmni universal yechim sifatida emas, balki murakkab va ziddiyatli jarayon sifatida taqdim etadi. Uning muvaffaqiyati «bir o'lcham hammaga mos keladi» tamoyiliga emas, balki har bir mamlakatning o'ziga xos tarixiy, siyosiy va iqtisodiy sharoitlariga bog'liq. Richard Masgreyv, Uolles Outs va Charlz Taybaut kabi olimlarning klassik nazariyalari markazsizlashtirishning potensial foydalarini asoslab bergan bo'lsa, keyingi tadqiqotlar uning amaliy muammolari, jumladan fiskal nomutanosibliklar, «yumshoq budjet cheklovlari» va mintaqaviy tengsizlik kabi xatarlarini chuqur o'rgandi. Shu sababli, fiskal federalizm yoki markazsizlashtirish siyosatini amalga oshirishda soliq vakolatlarini aniq taqsimlash, shaffof va adolatli budjetlararo transfertlar tizimini yaratish hamda mahalliy hokimiyatlarning moliyaviy intizomini ta'minlovchi kuchli institutlarni shakllantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Musgrave R.A. The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy – New York: McGraw-Hill, 1959 – 628 pages.
2. Charles M.T. A Pure Theory of Local Expenditures. The Journal of Political Economy, Vol. 64, No. 5, (Oct., 1956), pp. 416-424. [https://fbaum.unc.edu/teaching/PLSC541\\_Fall08/tiebout\\_1956.pdf](https://fbaum.unc.edu/teaching/PLSC541_Fall08/tiebout_1956.pdf)
3. Oates, W. E. Fiscal federalism. New York: Harcourt Brace Jovanovich, 1972 – 256 pages
4. Musgrave, Richard (1983), Who Should Tax, Where and What ?. In Charles McLure (ed.) Tax Assignment in Federal Countries, Australian National University Press, pp. 2-19.
5. Boadway, R., Shah, A. (2009). Fiscal Federalism: Principles and Practice of Multiorder Governance. USA: Cambridge University Press.



6. Oates, W. E. An Essay on Fiscal Federalism. Journal of Economic Literature, Vol. 37, (Sept., 1999), pp. 1120-1149. <https://fiscalfederalism.eu/wp-content/uploads/2020/05/ALLGEMEIN-Lit-1999-Oates-An-Essay-on-Fiscal-Federalism.pdf>
7. Treisman, D. (2007). The Architecture of Government: Rethinking Political Decentralization. USA: Cambridge University Press.
8. Prud'Homme, Remy. The dangers of decentralization (English). Washington DC ; World Bank. <http://documents.worldbank.org/curated/en/602551468154155279>
9. Pulatov D, Voronin S., "Impact Of Trade Policy Liberalization On Chemical Industry: Case Study Of Uzbekistan" IFRS: GLOBAL RULES & LOCAL USE – BEYOND THE NUMBERS
10. Pulatov D, Otabekov O., Xamidov X., "An Alternative method for calculating optimal tax burden: case of Uzbekistan's economy" Journal of Risk and Financial Management. 2025, 18, 718
11. Hakimov, Feruz, and Феруз Хакимов. «Amount of Personal Income Tax in the Republic Budget of Uzbekistan.»
12. Economic Development and Analysis, vol. 1, no. 3, 31 Jul. 2023, pp. 13-19, doi:10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss3-pp13-19.
13. Пулатов.Д.Х., Отабеков О.Ф., Маматкулов.С.Р., Абдиев.М.М., Хужамурадов А.Р., "Ўзбекистонда алкоголь ва тамаки маҳсулотлари учун акциз солиғи бирхиллаштирилган ставкаларининг саноат қўрсаткичларига таъсири" № 10-son noyabr, 2025-yil. "Marketing" jurnali, Elektron nashr, 45-50 sahifa. <https://www.marketingjournal.uz/post/pulatov-dilshod-xaqberdiyevich>
14. Пулатов.Д.Х., Отабеков О.Ф., Маматкулов.С.Р., Абдиев.М.М., Хужамурадов А.Р., "Ўзбекистонда жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғининг прогрессив ставкасини жорий этиш механизми" «Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali, 3(11), 15-22, ISSN: 2992-8982, 2025. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17657213>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 12

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>